

# **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI INGLIZ TILIGA QIZIQTIRISHDA INTERAKTIV O'YINLARDAN FOYDALANISHNING ROLI**

Alibekova Zilola Abdulhamid qizi  
JDPI o'qituvchisi  
Oblanazarova Hilola Feruz qizi  
JDPIning III bosqich talabasi

## **Key words**

*O'yinlar, interaktiv, texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, an'anaviy ta'lim, zamonaviylik, zukko o'quvchi, innovatsiya, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, o'quv jarayoni.*

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berish zamon talabiga aylandi. Bu borada ta'lim beruvchilarga ham, ta'lim oluvchilarga ham barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Xususan eng dastlabki ta'lim, mактабгача ta'lim muossasalarida, yosh bolalarni boshlang'ich sinfga tayyorlov kurslari tashkillashtirildi. Bunda maktabgacha bo'lган yoshdagi bolalar tarbiyachilar tomonidan harflar va raqamlar bilan tanishadilar.

Yosh bolalarni, ayniqsa, o'yinqaroq bolalarni bilim olishga, kitob o'qishga, yangiliklar o'ylab topishga, qiziqarli buyumlar yasashga va boshqa shu kabilarga qiziqtirishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari ham endigina o'zin davridan tartiblangan bilim davriga o'tib, hali unchalik moslashmagan bo'ladilar. Ayni shu vaqtida ularni 45 daqiqa biror dars mashg'uloti, o'qish, yozish, dars tayyorlash bilan band qilish orqali ijobjiy natijaga erishish qiyin. Chunki ular muntazam jismoniy o'yinlar bilan shug'ullanib, uning mazasidan bahramand bo'lib ulgurishgan. Shu sababli ham zerikarli, darsning tushuntirish qismi bilan ularning e'tiborini torta olmasligimiz mumkin. Aynan bu borada darslarda interaktiv, chalg'ituvchi va qiziqtiruvchi o'yinlardan foydalanish ayni muddao. Bu orqali o'qituvchi o'quvchilarda darsga bo'lган ishtiyoq va

qiziqishni uyg'otishi mumkin. Shuningdek, hozirgi kunda ta'lismarajayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogic va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto, xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Ta'lismarajayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Biz bilamizki, ta'larning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan ta'lismarajayonida maqsadi mos va mutanosib bo'lmog'I lozim. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlarga yaqinlashtirish imkonini paydo bo'ladi. Har bir tilni o'rganish jarayonida o'rganuvchilar, o'quvchilar bevosita o'sha til bilan muloqotga kirishadigan xalqlarning madaniyatiga kirib boradilar. Tilni qanchalik chuqur o'rganganlari sari, o'zlarini xohlamagan holatda o'sha yurt aholisiga taqlid qila boshlaydilar. Madaniyatiga qiziqib, uni chuqurroq o'rganishga kirishadilar. Bu esa dunyo tillarini o'rganishdagi ayrim qiyinchiliklarni oz bo'lsada osonlashtiradi. Masalan, yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga juda kata e'tibor qaratilmoqda va shu bilan birgalikda o'rganish, uqish uchun keng imkoniyatlar yaratilinmoqda. Xususan, ingliz va rus tillarini o'rganish zamon talabiga aylanib ulgurgan. Ta'larning boshlang'ich shakli bo'lmish maktabgacha ta'lismarajayonida bosholab ta'larning yuqori bosqichlarida ham ingliz tili chuqurlashtirib o'rgatilmoqda. Hozirda maktab yoshiga qadar bolalar chet tillarda harflarni o'rganib, tanib, raqamlarni sanashni o'rgangan holda maktabga qadam qo'ymoqdalar. Maktablarda esa yoshlariga mos matnlarni yod olib, og'zaki bayon qilishga o'rgatilyaptilar. Bu quvonarli holat, albatta. Ammo yoshlar bilimlarini shu bilan toxtatibgina qolmay, maktab darsidan tashqari qo'shimcha fan to'garaklariga ham qatnab, o'z bilimlarini ustahkamlashmoqda. Ayni damlarda, shahrimizning qay-

bir ko'chasiga nazar tashlasangiz, til o'rgatish uchun mo'ljallangan o'quv markazini ko'rishingiz mumkin. Maktab ta'limida o'quvchilar barcha fanlardan tushunchaga ega bo'lsalar, o'quv markazlarida o'zлari qiziqqan soha bo'yicha chuqurlashturulgan bilimlarga ega bo'ladilar.

Ulug' donishmandlardan biri "... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit", degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik, yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki, chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogic va yangi axborotlar texnologiyalarini tadbiq etish, o'quv mashg'ulotlarini samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amalyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar metodi", "Sinkveyn", "BBB", "Beshunchisi ortiqcha", "6x6x6", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Shuningdek, ingliz tili o'qitishda "Hot potato", "Work with partner" metodi, "Which picture can you show", "Find true sentence", "Crossword", "Red apple" interaktiv o'yinlardan foydalanish ham o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni o'stirishga xizmat qiladi.

Xususan, "Hot potato" o'yini. Bunda o'qituvchi fan yuzasidan biror savol beradi va qo'lidagi "Hot potato" nomli sharni o'quvchilarga otadi. Sharni ilib olgan o'quvchi majoziy ma'noda qo'li kuyib qolmasdan savolga javob berishi kerak. Aks holda bu o'quvchi o'yinni tark etib, jazolanishi muqarrar. Ushbu "Hot potato" o'yini o'quvchilarni ko'proq bilim o'rganishlari bilan bir qatorda, tezkorlik va zukkolikka undaydi.

Xullas, dars o'tish mobaynida o'quvchilar yoshiga mos, o'tilayotgan mazmun-mohiyatiga munosib, ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan,

shuningdek, o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lgan interaktiv o'yinlardan foydalinish dars samaradorligini oshiradi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

*Foydalaniłgan adabiyotlar:*

1. *Boshlang'ich sinflar metodikasi.*
2. *Library.ziyonet.uz.*
3. *Boshlang'ich sinf darsliklari.*
4. Djabbarov, S. (2021). *Бошлангич синф ўқувчиларига инглиз тилини ўқитишининг долзарб муаммолари ва ечимлари. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9).*